

## **O'SMIRLANDA REFLEKSIV XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI**

*Umarova Dilora Turobovna*

*Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'smirlarda refleksiv xususiyatlarini o'rganishning nazariy asoslari hamda o'smirlarda refleksiv xususiyatlarni rivojlantirish chorta tadbirlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** refleksivlik, individuallik, determinizm, qobiliyat, ko'nikma, malaka, subyekt, psixologik xususiyatlar.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические основы изучения рефлексивных черт у подростков, а также хортистские мероприятия по развитию рефлексивных черт у подростков.

**Ключевые слова:** рефлексивность, индивидуальность, детерминизм, способности, умения, навыки, субъект, психологические особенности.

**Annotation.** This article discusses the theoretical foundations of the study of reflexive traits in adolescents, as well as choristic measures for the development of reflexive traits in adolescents.

**Key words:** reflexivity, individuality, determinism, abilities, skills, subject, psychological characteristics.

**Kirish.** Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida refleksiya, refleksivlikni rivojlantirish, inson faoliyatining motivatsion ta'siri, insonlararo muloqot jarayonini tashkil etish va hamkorlikdagi faoliyat tarkibida ta'lim faoliyatini tashkil etishda «tizimli-tafakkur-faoliyat» yondashuvi, refleksiv jarayonlarni o'rganishning metakognitiv paradigmasi, o'zini o'zi tushunish va o'zini o'zi anglashning fundamental mexanizmlari, boshqaruvning refleksiv qonuniyatlari borasidagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Bu borada, insonning refleksiv qobiliyatlari, o'zini va tashqi dunyoni anglash, o'z imkoniyat va imkoniyatlarini adekvat baholash, o'zini o'zi nazorat qilish orqali tarbiyalash va boshqarish bilan bog'liq psixologik muammolar diagnostikasi va psixokorreksiyasini amalga oshirish, psixolog mutaxassis faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan masalalariga e'tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonlik tadqiqotchilar refleksiya, refleksivlik masalalarini o'zini o'zi nazorat qilish, shaxs o'zini o'zi boshqarishning fikrlash faoliyatiga ta'siri, o'quv faoliyatida o'zini o'zi boshqarish, oilada bola shaxsida o'zini o'zi anglashning shakllanishi, milliy o'zlikni anglash, o'spirinlik davrida ijtimoiylashuvning muvaffaqiyatli omili sifatida B.S.Abdullaeyeva, Sh.V.Azizova, B.G.Gappirov, M.G.Davletshin, A.M. Jabborov, E.M.Muxtorov, Z.T. Nishonova, N.T.Norkulova, X.A.Ruxieva, N.S.Safaev, R.I.Sunnatova, N.I.Xalilova, Ye.A.Xaxlina, O'.B.Shamsiev, E.G'.G'oziev va boshqalar ilmiy tadqiq etganlar. Tahlil ko'rsatadiki, respublikada refleksivlik muammosini ilmiy-amaliy nuqtai nazardan o'rganish dastavval ta'lim tizimi uchun amalga oshirilgan, keyinchalik ijtimoiy maskanlar, muassasalar tizimi uchun tadqiq etilgan, lekin shaxs psixik rivojlanishida alohida psixologik muammo sifatida o'rganilmagan.

Psixologik asarlarda refleksiya tushunchasiga quyidagicha ta'riflar berilgan: *"Refleksiya" (lotincha reflexio – «ortga nazar»)* dastlab falsafada shakllangan bo'lib, u insonning o'z ongida sodir bo'layotganlarni mushohada qilish jarayonidir". Boshqacha qilib aytganda, *"bu insonning ruhiy olami mohiyatini ochishga qaratilgan o'zini o'zi bilish faoliyatidir"*.

Refleksiya ya'ni aks ettirish jarayonini inson tafakkurining o'zini o'zi tanqidiy tahlil qilish qobiliyati, deb ta'riflasak ham bo'ladi. G.M.Kodjaspirova va A.Yu.Kodjaspirov refleksiya tushunchasini fikrlash, o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi nazorat qilish, o'zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, inson nazariy faoliyatining shakli, ya'ni o'tmishdagi voqelikka murojaat qilish imkoniyati sifatida bilishgan. V.I.Slobodchikov refleksiya talabani o'zini va o'z xatti-

harakatlarini ob'ektiv baholashi, o'quvchilar va boshqa insonlar tomonidan o'zini qanday qabul qilinayotganini, eng avvalo, u muloqot jarayonida kimlar bilan o'zaro ta'sirda ekanligini tushunish qobiliyati, deb ta'kidlashgan.

Umumiy tarzda refleksiya – inson bilish jarayonining o'z-o'ziga, o'zining ichki olami, psixik holatlari va sifatlariga qaratilganligi. Qolaversa, bu sub'ektning atrofdagilar uni qanday baholayotganligini “idrok” qilishi. Refleksiya kishi bilimlarining o'z-o'ziga, o'zining ichki olamiga psixik holatlarga qaratilganlidir. “Boshqalar uni qanday odam deb hisoblashi”- haqidagi uy-xayollardir. Demak, refleksiya tushunchasiga keltirilgan psixologik ta'riflarni umumlashtirgan holda uni shaxsning o'zini o'zi anglashi bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida etirof etish mumkin. Shunga monand ravishda psixologiya fani doirasida refleksiya tushunchasiga etibor qaratmoqdamiz. Refleksiya tushunchasi lotin tilidagi “reflexio” so'zidan kirib kelgan bo'lib, so'zma-so'z tarjima qilinganda “ortga nazar” degan ma'noni anglatadi. A. Buzemannning ilmiy-ijodiy faoliyati refleksiya fenomeni psixologiya fanining maxsus o'rganish predmetiga aylanishi uchun turtki bo'ldi. U refleksiyani “tashqi olamdagi har qanday kechinmalarni o'zining ichki olamiga ko'chirish” sifatida talqin qilgan va psixologiya fanining maxsus refleksiv jarayonlar va ongni o'rganadigan refleksiya psixologiyasi deb ataladigan sohasini ajratish kerakligini taklif qilgan. M.K.Tutushkinaning asarlarida talabalarda refleksiyani shakllantirishda, vazifalardan kelib chiqib rivojlantirish ta'kidlangan. Uning fikriga ko'ra, talabalarda refleksiya konstruktivlik va nazorat funksiyalarini bajarishda qo'l keladi. Konstruktiv nuqtai nazardan refleksiya – hozirgi vaziyat bilan shaxsning intellektual dunyoqarashini bog'lash va ularni izlash hisoblanadi. Ushbu funksiya yordamida refleksiyani faollashtirish yuz beradi, unga faoliyat, xulq-atvor va muloqotda o'zini o'zi tartibga solish jarayonlari ham kiritilgan. Nazorat qilish funksiyasi nuqtai nazaridan, refleksiya - muayyan hududda va mavjud vaziyatda talabaning dunyoqarashi va ulardan foydalanish, tekshirish o'rtasidagi aloqalar hisoblanadi. Bu o'ziga xos aks ettirish mexanizmidir. Mazkur mexanizm o'z natijalarini muayyan faoliyatda yoki muloqotda o'zini o'zi nazorat qilish uchun ishlatishga imkon beradi. U refleksiyani ob'ekt

bo'yicha farq qiluvchi uch xil refleksiya ajratadi. Bu o'zini o'zi anglash, faoliyat turi va kasbiy faoliyat refleksiyaasidir. Chet el psixologiyasining bunday rivojlanishining inertsiyasini - va hatto bir muncha vaqt - faqat A. Buzeman (1925, 1926) yengib o'tdi, u, ehtimol, psixologlarning birinchisi, aks ettirish va ongning o'zi bo'yicha tadqiqotlarni alohida sohaga ajratishni va uni aks ettirish psixologiyasi deb atashni taklif qilgan (qarang: po). Uning ishining asosiy natijasi, L.S.Vigotskiyning baholashicha, "o'smirning aks etishi va unga asoslangan o'z-o'zini anglashi rivojlanishda namoyon bo'lishini" eksperimental isbotlashdan iborat. A. Buzeman aks ettirishni "har qanday tajribani tashqi dunyodan o'ziga o'tkazish" deb izohlaydi.

Ta'kidlash joizki, refleksiya haqidagi bilimlarning rivojlanishi uning yanada ijtimoiylashuviga sharoit yaratmoqda. Zamonaviy psixologiyada refleksiyaning uchta asosiy turi farqlanadi:

-elementar refleksiya bilimlarni tahlil qilish, ularning chegarasi hamda mohiyatini ko'rib chiqishiga olib keladi;

- ilmiy refleksiya – metod va usullar asosida ilmiy tadqiqotlarning ushbu sohasiga taalluqli nazariy bilimlarni tahlil va tanqid qilish;

- psixologik refleksiya –tafakkur, umuman, shaxs strukturasi asoslarini anglash va tushunish.

**Xulosa va tavsiyalar.** Refleksivlik tushunchasi falsafiy, pedagogik, psixologik jihatdan tahlil qilingan, shuningdek, refleksiya, refleksivlik jarayonlari xususida qator ilmiy izlanishlarning tahlillari bayon qilingan.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.06.2020 yildagi PF-6017-son "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni// <https://lex.uz/docs/-4880189>.
2. Sh.V.Azizova Yuqori sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatini boshqarishning psixologik xususiyatlari psixologiya f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi Toshkent – 1988 yil 145-bet
3. Ганзен, В.А. Системные описания в психологии / В.А. Ганзен. – Л.:Изд-во Ленингр. ун-та, 1984. – 176 с.
4. Антилогова, Л.Н. Саморегуляция психических состояний личности: монография / Л.Н. Антилогова, Е.А. Черкевич. – Омск : Изд-во ОмГПУ, 2010. – 219 с.
5. Гаппиров Б.Т Талабаларда ахлоқий ўз-ўзини англашнинг ўқув жараёнидаги динамик тараққиёти психология фанлари номзоди, илмий даражасини олиш учун диссертация 1999 й. 133 б (8)